ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-12

MAXTUMQULI IJODIDA KO‘CHIMLAR TAHLILI

Kadirova Zaynura Zaynidinovna
Termiz davlat universitet o‘zbek tili va adabiyoti
kafedrasi dotsenti (PhD).

Annotatsiya: maqolada ko’chimlarni tahlil qilish orqali Maxtumqulining o'z davri ijtimoiy, siyosiy va madaniy manbalarga qanday munosabatda bo'lganligi yoritilgan. Shuningdek, u ko’chimlarning she’riyatda shakllantirishi, yangi uslublar, janrlar va ifoda shakllarining paydo bo'lishiga olib kelishi haqida ma’lumot berilgan.
Kalit so‘zlar: Metonimiya, metafora, ma’no ko‘chish, jozibadorlik, ekspressivlik, ifoda kuchi, o‘xshashlik, didaktika, “Saylanma”

Bilamizki, til bu aloqa-aralashuv vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Tilning rivojlanishida bu kommunikativlik sifati kamlik qiladi. Ushbu sifatdan tashqari turli xildagi so‘z shakllari, shevalardan yangi so‘zlar hosil qilish va turli qochirimlardan foydalanish orqali boyib boradi. Inson nutq so‘zlar ekan, o‘z fikri ifodasi bayonida borliqdagi narsa-hodisalarga turli xildagi nutqning ta’sirchanligini yanada oshiruvchi vositalardan ham keng foydalanadi. Ulardan faol qo‘llanadigan vositalardan biri ko‘chimlar asosiy vazifani bajaradi. Nutqimiz davomida, albatta ushbu birliklardan foydalanamiz. Bu vositalar erkalash, g‘azab, nafratlanish, qoyil qolish, kinoya, piching va hayratlanish kabi ma’nolarda o‘z aksini topadi, bular esa ekspressivlik bo‘yog‘ini nutq jarayonida yana ham oshirishga xizmat qiladi. Ma’no ko‘chishining qay tariqa yuzaga chiqishi asosida metonimiya, metafora, sinekdoxa, vazifadoshlik kabi turlari keng tarqalgan. Yuqoridagi sanab o‘tilgan turlardan eng keng tarqalgani va keng foydalaniladigani metafora hisoblanadi. Metafora bu_ ma’no ko‘chishining bir turi bo‘lib, bunda asosan, o‘xshashlik o‘xshashlik jarayoni asosida kuchim yuzaga keladi. Bu esa metaforaning asosiy va birlamchi xususiyati hisoblanadi.

Ma’no ko‘chish turlari har bir xalqning o‘tmish madaniyati va tafakkuri mahsuli bo‘lib, yillar davomida paydo bo‘lgan qarashlar ifodasi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Aynan mana shu ifodalar orqali tilning boyish imkoniyatini baholashimiz mumkin. Shu jumladan, bugun keng ko‘lamda foydalanayotgan metonimiya, metafora sinekdoxa, vazifadoshlik kabi kuchim turlarimiz bilan ularning oldingi davrlardagi ko‘rinishlarini farqlash va tahlil tadqiq qilish masalalari yuzaga chiqadi. Ushbu ko‘chimlarning bevosita badiiy asarlar misolida tahlilini ko‘rib chiqamiz. Tog‘ay Murod ijodini oladigan bo‘lsak, tahlil qilish jarayonida “Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi” asarida ko‘chimlarning qadimiy namunalari ham o‘z aksini topgan. Xususan, ushbu asarning 6-betida „ Qish qaridi ’’ gapida metanomik ko‘chim, 12-betida esa “Kinoteatr qad ko‘tardi” gapida metaforik, yoki bo‘lmasa “Imperiyaning qadami borgan” kabi qismlarini bevosita tahlilga chorlasak maqsadga muvofiq deb hisoblayman.

Shu o‘rinda turkman klassik adabiyotining otasi “Firog‘iy” taxallusi bilan mashhur bo‘lgan Maxtumquli “Saylanma” ning sermazmunligi va serqirraligi bilan ajralib turadi. Maxtumquli ijodiga nazar soladigan bo‘lsak, Sharq klassik poeziyasini, ayniqsa Alisher Navoiy ijodini o‘rgangan va keyinchalik sekin-astalik bilan mana shunday ijod qilishga kirishadi. Maxtumquli garchand turkman farzandi bo‘lsa-da, Xiva madrasalarida ta’lim olib, she’rlarini o‘zbek tilida nashr ettirgan. Ma’lumotlarga ko‘ra, ushbu yozuvchi poeziyasida didaktika (qadimgi yunoncha didaktikos _

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-12

“o‘rgatuvchi”, “ta’lim beruvchi”) juda ham kuchli shoirdir. U o‘z she’rlarida ko‘chim , mubolag‘a, o‘xshatish va shu kabilar vositasida, asosan, odob-axloq masalalari , nafaqat o‘z zamonasi balki bugungi kunga qadar ahamiyatini yo‘qotmagan. Maxtumquli ijodining turkman tarixidagi o‘rni, uning o‘zbek-turkman adabiy aloqalar sohasidagi ahamiyati B. Qoriyev, G. Choriyev, M.Kosev, U Abdullayev, A. Qilichturdiyev kabi taniqli turkman olimlarining ilmiy ishlarida o‘z aksini topgan. Maxtumquli asarlari asosan she’rlari janriy va shakliy o‘ziga xosligi , xalqchilligi bilan ko‘p asrlik turkman adabiyotini yangi davrga ko‘tardi.

Falak qaytib qarorinnan qaytib, fido o‘lmish zorima,
Bir ajoyib zebo sanam kirmish ishq bozorima.
Asli Behisht sunbulidir gul yuzinda zulflari,
Eram ichra bitgan norlar o‘xshamas bul norima. (29-bet “Saylanma”)

Ushbu she’r “Nomus — orima” deb nomlanadi. Bu yerda metaforalar tahliliga to‘xtaladigan bo‘lsak, zebo sanam mening ishq bozorimga kiradi deyiladi. Zebo sanam deb ayollarga xos bo‘lgan or-nomus tuyg‘ulari va insonning ko‘nglini ishq bozoriga o‘xshatish orqali yuzaga chiqadi. Ikkinchi yana boshqa bir baytda gul yuzing deya ta’kidlagan. Albatta, ushbu ko‘chim ham metaforik ko‘chimga misol bo‘la oladi.

Haqiqatdan ham Maxtumquli she’rlari tog‘ bag‘ridan qaynab chiqqan zilol chashmaning suvi kabi musaffodir. Ular lola-rayhonli, gul-lolali bog‘-bo‘stonning muattar hidi kabi barq urib, ko‘ngilni zavq-u shavqqa to‘ldiradi.Bo‘g‘in-bo‘g‘inlarni bo‘shashtirib, yuraklarni yayratgan dutorning mayin va dil o‘rtar nolasi kabi hayajonga soladi. Maxtumquli yashagan zamon nihoyatda og‘ir va murakkab bir davr edi. Shu davrning ma’naviy havosidan nafas olgan shoir kuchli larzalarning, turli hodisalarning girdobida kuyib-pishib yashagan.U jamiyatni, hayotni, odamlarni teran tushungan, insoniyat erishgan dunyoviy va diniy tasavvufiy ilmlarni chuqur o‘zlashtirgan, ma’naviy kamolotga erishgan komil zot bo‘lgan. Mutafakkir umuminsoniyat baxt-u saodati uchun jon kuydirib yashagan chog‘ida o‘sha davrda dunyoning turli burchaklariga sochilgan, mustaqil davlati bo‘lmagan turkman xalqini hamjihat bo‘lishga, yagona davlat atrofiga jipslashishga, milliy birdamlikka chaqiradi.

Bir pari sollanib, saylga chiqibtur,
G‘amza bilan qalam qoshin qoqibdir.
Mening jonim ishq o‘tina yoqibtur.
Boshlari tillodan jig‘ali keldi. (Kulohli keldi. 222-bet)

Ushbu she’rida esa yor tasviri bevosita aks etgan. Quyidagicha tahlil orqali mavzuyimizni kengroq yoritishga harakat qilaman: she’rda aytilishicha, bir pari juda ham go‘zal qizni pari deya metaforik ko‘chim orqali yuzaga chiqayapdi. Shunchalar yorni tasvirlaganki, yorning boshini tilloga tenglashtirayapdi. Bosh so‘zi ishlatilgani esa sinekdoxani yuzaga chiqaradi, boshi tillodan birikmasi esa metaforik ko‘chimni yuzaga keltirib chiqardi.

Bugun shoirning aziz eliga u orzu qilgan baxtiyor istiqbol muyassar bo‘ldi. Mustaqil Turkmaniston davlati jahon xaritasida tinchlik va hamjihatlik mamlakati sifatida maydonga chiqdi. Hamjihatlikning buyuk kuchiga ishongan turkman xalqi Maxtumqulidan hamisha minnatdordir. Bu yil Maxtumquli ijodi o‘zbek xalqi uchun qadrdon, ko‘plab she’rlari asosida kuylanayotgan qo‘shiqlari sevib tinglanadi. Maxtumquli Firog‘iyning 300 yilligi nishonlanadi. Turkmaniston 2014-yilni Maxtumquli yili deb e’lon qilganligi ham millat mutafakkiriga bugungi minnatdor avlodlarning beqiyos ehtiromi timsolidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-12

1 Mahmudov O. Maxtumquli tarjimai hol: falsafa va ijod. Tashkent: Yangi asr avlodi. 2018-yil.
2 Makhmudov, A. Makhtumkuli: hayoti va ijodi. Tashkent: Sharq. 2010-yil.
3 Махтумқули Фироғий. Сайланма. Тошкент. 2008 йил.
4 Арипов Б. Махтумқули девони ва фалсафа. Ташкент: Ғафур Ғулом. 2008-йил.
5 kh-davron.uz
6 https://uz.wikipedia.org/wiki/Antonimlar.